

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HARBIY AVIATSIYA INSTITUTI

13(1)2025



SAMO QALQONLARI
ILMIY-AXBOROT JURNALI

I. QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA AVIATSIYA, MUHANDISLIK, KONSTRUKTORLIK, AVIATSIYA TEXNIKALARINI QO'LLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

1. Qosimov Odiljon Olimjonovich

Raqamlashgan jamiyat muhitida kadrlar kompetentligining ta'lim samaradorligiga ta'siri.....4

2. Kadimbekova K.K., Ganixanov A.A.

Methods for monitoring damage to turbine blades of aviation gas turbine engines.....9

3. Kadimbekova K.K., Umerov A.U.

Damage in aircraft cell structures.....17

4. Abdujabbarov N.A., Aliakbarov D.T., Rahimkariyev K.A.

Chekli elementlar usuli asosida aviatsiya konstruksiyalarining "Kuch elementlari og'irligi"ni hisoblash uchun matematik modelni ishlab chiqish.....23

5. Kosimov U.D., Takhirov J.K., Turayev A.A. 27

Peculiarities of using vacuum forming and vacuum infusion technologies in the production of airplane parts.....26

6. Xusnutdinova X.X., Raximkariyev K.A., Aliakbarov D.T.

Xar xil transport turlari bo'yicha yuklarni tashilishning iqtisodiy samaradorligini baholashning qiyoslash usulini ishlab chiqish haqida.....30

7. Shamsiev Z.Z., Xusnutdinova Kh. Kh., Abdujabbarov N.A.,

Takhirov J.K.

Improving communication efficiency in the management of unmanned aerial vehicle (UAV) flights.....33

8. Шамсиев З.З., Абдуллаев М.М., Махсудов Ш.Д.

Совершенствование организационной формы капитального ремонта шасси транспортного самолёта.....39

9. Shamsiev Z.Z., Abdujabbarov N.A., Toxirov J.K., Kosimov

U.D.

Optimization of specific wing load for fixed-wing uavs to enhance flight efficiency.....44

10. Сагдиев Т.А., Камбаров Д.К., Колмыков С.В.

Применение беспилотных летательных аппаратов для обработки трихограммой в сельском хозяйстве.....50

II. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLAR RIVOJI

11. Saitaxmadov M. B.

Harbiy uchuvchisiz uchish apparatlari simulyatorining operatorlarni tayyorlashda tutgan ahamiyati.....55

12. Kadirov M. M.,

Существующие проблемы и оптимальные решения при подготовке авиационных специалистов.....62

III. HARBIY TA'LIMDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING ISTIQBOLLARI

13. Amirkulov O.I.

Gimnastika sportining inson uchun foydasi.....67

14. Amirkulov O.I.

Jismoniy madaniyatning tushunchalari va mohiyati.....74

15. Xudoyorov L.N., Sunatov J.T.

Qashqadaryo viloyatida aloqa xizmatlarining o'sish tendensiyalarini ekonometrik tahlil qilish.....64

16. Hakimov D.Q.

Voleybolning kelib chiqishi va hozirgi davrdagi voleybol.....79

17. Husanov G'. U.

Gandbol o'yinining texnikasi.....83

18. Husanov G'. U.

Milliy kurash sportida texnik va taktik tayyorgarlik.....90

19. Berdiyeva S.E., Abduraxmonova F. I., Zoyirova S.Z.

Shaxs psixologik salomatligi masalalari.....94

20. Suyunov T.N.

O'zbekistonda boksning paydo bo'lishi.....98

21. Suyunov T.N.

O'zbekistonda dzyudoning paydo bo'lishi.....104

22. Vardiashvili I.R.

Boks sporti texnikasi.....111

23. Vardiashvili I.R.

Milliy kurashning paydo bo'lishi.....116

24. Berdiyeva S.E., Elmurodova Ch.S., Nurboboyeva A. I.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning pedagogik va psixologik asoslari.....121

25. Tuganova L.J.

Oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning hozirgi holati va imkoniyatlari.....125

26. Sattorov S.B., Ergashev A.Yu., Saburov.M.B.

Mobile team in railway transport logistics: innovative approach and practical solutions.....131

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zagvyazinsky, V. I. (2006). Theory of education: modern interpretation [Text]: Studies. Manual for students. Ouch. studies'. Institutions. 3rd ed. Rev. - Moscow: Academy.
2. Tsyganova L. V. (2018). Interrelation of the problem of developing educational strategies with a new educational paradigm of forming an effective system of continuous education. Actual problems of theoretical and applied linguistics and optimization of foreign language teaching: proceedings of the VI International scientific conference October 11-12, 2018. Togliatti: TSU publishing House. 133-139.
3. Bendrieji Europos kalbų mokymosi, mokymo ir vertinimo metmenys. Vilnius: Firidas, 2008. 338 p.
4. Artelt, C., Moschner, B. (2005). Lernstrategien und Metakognition: Implikationen für Forschung und Praxis – Einleitung. In C. Artelt & B. Moschner (Hrsg.), Lernstrategien und Metakognition: Implikationen für Forschung und Praxis. Berlin: Waxmann, 7-11.
5. Talyzina, N. F. 2001 Pedagogical psychology [Text]: Studies for the students. environments' PED. Studies' institutions. 3rd ed., revised. Moscow: Academy.
6. Pidkasistyj, P. I. (2005). Organization of educational-cognitive activity of students [Text]: monograph. (2nd ed.), rev. Moscow: Pedagogical society of Russia.
7. Vasilev, V. L., & Ustyuzhina, O. N. (2017). Competences of the modern university teacher: challenges of innovative economy. Revista publicando, 4(1), 404-418.

OLIY TA'LIM O'QUV-TARBIYA JARAYONINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI VA IMKONIYATLARI

Tuganova Luiza Juraevna

Chirchiq pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda o'qitish jarayonini kreativlik yondashuv asosida boshqarishning hozirgi holati va imkoniyatlari haqida fikrlar bayon etilgan. Unda asosan mavzuga doir adabiyotlarning tahlili va an'anaviy hamda kreativ ta'limning taqqoslash amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, kreativ ta'lim, an'anaviy ta'lim, kreativlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы управления процесса обучения ВУЗе на основе креативного подхода. В ней в основном излагается литературный обзор и сравнительный анализ обычного и креативного образования.

Ключевые слова: креативный подход, креативное обучение, обычное обучение, креативность.

Annotation. This article describes the theoretical foundations of creative management of the teaching process in higher education. In it, the analysis of the literature on the topic and comparison of traditional and creative education were carried out.

Keywords: creative approach, creative education, traditional education, creativity.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda sanoat davri innovatsion rivojlanish davriga almashtirilmoqda, bunda bilim, yuqori texnologiyalar va yangi ishlanmalar asosiy rol o'ynaydi. Milliy innovatsion tizimlar yaratilmoqda, ularning maqsadi innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni qurishdir. Innovatsion jarayonlar iqtisodiyot, ijtimoiy soha, siyosat, ta'lim, fan, texnika, ishlab chiqarish, biznes va boshqa sohalarni qamrab oladi. Innovatsion jamiyatda uning rivojlanishida yangi g'oyalar va innovatsiyalar katta rol o'ynaydi. Rivojlanishning innovatsion bosqichida axborot va bilim ijodiy tafakkurning sub'ektiga aylanadi, ularning mahsuli katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo'lgan yangi g'oyalardir [1].

Shu bilan birga, yangi bosqichga o'tishda oldingi bosqichlardagi barcha yutuqlar saqlanib qoladi va yuqori darajada rivojlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ijodkorlik doimiy amaliyot va raqobatdosh ustunlikning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Deyarli har qanday ishlab

chiqarish sohasida ijodiy salohiyatga ega bo'lgan kishi yakunda g'alaba qozonadi. Student shaxsining mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra tizimli ijodiy jarayon tarzida namoyon bo'ladi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. O'quv-tarbiya jarayoniga kreativ yondashish mamlakatimizda ta'lim tarbiyaning innovatsion turi sifatida o'z mavqeini mustahkamlamoqda, uning asosiy yo'nalishi kreativ fikrlashni shakllantirish, kreativ qobiliyat va intellektual salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlashdir.

Bu qoidalar innovatsion Oliy ta'limni rivojlantirish milliy ta'lim tashabbusida o'z ifodasini topgan bo'lib, u ijodiy shaxsni rivojlantirish va uzluksiz ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga qodir innovatorlarni yetishtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab beradi.

“Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish salohiyatiga aylantirish orqali uning kasbiy ongida innovatsiyalarga bo'lgan munosabatni mustahkamlashga qaratilgan. Bu Studentlarni kreativ bilim olishga, o'z-o'zini yaratuvchisi va kelajagini yaratuvchisi bo'lishga undaydi” [2]. Rivojlanish muammolarini ko'rish va ularni hal qilish variantlarini loyihalash doirasini kengaytiradi.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda eng keng qamrovli va samarali usul - bu haqiqiy kasbiy muammolarni hal qilish, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, o'quv guruhining birgalikdagi faoliyati, mustaqil ishlash shaklida amalga oshiriladigan harakat bilan tavsiflanadi.

O'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda fanlarni tanlash, o'quv guruhlarini shakllantirish, tinglovchilar yoki Studentlarning individual ish hajmi, salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, amaliy tadbirlarning shakllari, soni va taqsimoti muhim hisoblanadi.

Kreativ ta'lim-tarbiyada fanlarni tanlash, o'quv dasturini mustaqil tanlash yoki uni tanlashda ishtirok etish imkoniyati katta ahamiyatga ega.

Majburiy fanlar majmuini qat'iy belgilab beruvchi davlat standartidagi ta'lim muassasasining buyrug'i ham mavjud. Oliy ta'lim muassasalari erkin tanlash fanlarini o'qitishga o'tishi va istiqbolli muammolarni hal qilish uchun innovatorlarni tayyorlashi zamon talabidir. Kreativ Oliy ta'lim ko'p va fanlararo tadqiqotchilarni tayyorlash uchun yangi turdagi ta'limdir. Ta'lim guruhlarini shakllantirish kreativ ta'limning muhim nuqtasidir. Izlanish, ijodkorlik, hamkorlik, intellektual salohiyatni integratsiyalashuvining ijtimoiy-psixologik muhitini o'rnatish guruhning qanday shakllanganligiga bog'liq. O'quv guruhi kreativ jamoa bo'lishi kerak. Student va o'qituvchining individual yuklamasi kasbiy ijodiy ongni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u bilimlarni individuallik, keyingi rivojlanish istiqbollari, kasbni tushunish, qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan o'zlashtirishni o'z ichiga oladi [3]. Bu kurslarni o'zlashtirishning ma'lum bir intensivligini amalga oshirish, ularning muammolari bilan shug'ullanish, o'quv jarayonining ritmi, bilimlarni chuqurlashtirish va ularning muammolarini tushunish uchun amaliy motivatsiyani nazarda tutadi.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda turli nazorat shakllari: yozma ish, test sinovlari, suhbatlar, imtihonlar, fanlararo tadqiqotlardan foydalanish talab etiladi.

Studentlarning mustaqil ishlarini faollashtirish o'quv jarayonining kreativ darajasini oshirishning g'oyat muhim omilidir.

U bir qator o'zaro bog'liq vazifalarni bajarish oshirish orqali amalga oshiriladi:

Studentlarning faolligini va bilish jarayoniga qiziqishini oshirish, o'rganish va ijodkorlikka shaxsiy qiziqish, yangi bilimlarni olish va mustaqil izlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, faollik va tashabbusning namoyon bo'lishini rag'batlantirish, barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantirish, kognitiv, tadqiqot va ijodiy faoliyat uchun, ijodiy o'zini o'zi anglash va o'zini-o'zi takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish, dalillar bazasini ishlab

chiqishda mustaqillikka odatlantirish;

Studentlarni kreativ faoliyatning barcha turlariga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish, bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratish, Studentlarni ko'p tarmoqli tadqiqot va ilmiy ishlarga jalb qilish, fanlararo tadqiqot va ilmiy ishlarda tashabbus ko'rsatish uchun sharoit yaratish va ta'minlash;

Studentlarning ijodiy tadqiqot jamoalarida o'zini-o'zi tashkil etish ko'nikmalari va mexanizmlarini rivojlantirish.

Birinchidan, amaliy tashkil etilgan bilimlar har bir Studentga bilimlarning ahamiyatligini anglash, hayotda qayerda va nima uchun kerakligini tushunish va qanday hayotiy muammolarni bartaraf etishda yordam berishini tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, olingan bilimlar bilan real, amaliy hayot o'rtasida chuqur mazmunli aloqalarni o'rnatish.

Uchinchidan, kreativ faoliyatning optimallashtirish yo'llarini o'zlashtirish va mustahkamlash, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni samarali hal qilish uchun ko'nikma va ko'nikmalarni singdirish, bu esa olingan bilimlarni turli va notanish vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi.

To'rtinchidan, Studentlarning amaliy ko'nikma va malakalarni, shuningdek, aqliy hujum, boshqa ob'ektlar bilan assotsiativ aloqalarni o'rnatishga asoslangan ob'ektning yangi g'oyalari va xususiyatlarini izlash usuli kabi o'ziga xos evristik vositalar va usullarni egallashi.

Beshinchidan, Studentlarda monitoring va tahliliy tadqiqotlar asosida mas'uliyatli tanlash, mustaqil samarali qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish. Eng yangi axborot texnologiyalari va texnik o'quv vositalarini qo'llash. Internetdan keng va samarali foydalanish. Masofaviy ta'lim tizimini joriy etish. Audio va video jihozlardan foydalanish. Onlayn kurslardan foydalanish va kompyuter interaktiv texnologiyalarining keng imkoniyatlari.

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kreativ boshqarish innovatsion sinergiyani oshiradi.

Birinchidan, kreativ faoliyat uchun kreativ kadrlar tayyorlashning ilmiy va ta'lim sinergiyasi.

Ikkinchidan, sog'lom turmushning iqtisodiy barqarorligiga erishishning ijtimoiy-iqtisodiy sinergiyasi.

Uchinchidan, iqtisodiy muhitni rivojlantirishda moliyaviy va tashkiliy sinergiya.

To'rtinchidan, ilmiy-texnikaviy, texnologik, ishlab chiqarish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun innovatsion faoliyatda integratsiya jarayonlarini loyihalash va innovatsion sinergiya, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish, tarmoqlar tuzilmalarini va raqobatbardoshligini takomillashtirish;

Beshinchidan, mehnat bozorini tubdan qayta qurish va iqtisodiy tizim faoliyatining samarali tamoyillarini shakllantirish uchun texnologiyalar va sanoatning sinergiyasi.

Oltinchidan, xalq salomatligi va yashash joylarining ekologik rivojlanishining salomatlik-ekologik sinergiyasi.

Yettinchidan, transmilliy aloqaning energiyasini oshirish.

Oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonda Studentlarning kreativligini shakllantirish uchun ularda ta'lim va tarbiyani an'anaviy yondashuv asosida emas, balki yangi g'oyalar haqida fikr yuritish, o'ziga xoslik, tashabbuskorlikka qaratilgan yondashuvlar asosida ish olib borish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan kreativlik sifatlariga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassis o'z faoliyatini tashkil etishda kreativ yondashish, innovatsion g'oyalarni yaratishda faol bo'lish, kasbiy faoliyat sohasiga doir ilg'or yutuq va tajribalarni mustaqil o'zlashtirish, shuningdek, hamkasblar bilan kasbiy yutuqlar xususida muntazam fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Student shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, his-tuyg'ulari, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi bo'lg'usi pedagoglarda ham kreativlik sifatleri o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli

rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud [4].

Birinchi yo'l - kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, Studentlar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi.

Xususan, Studentlar kreativ fikrlash ko'nikmasini yuqori darajada shakllantirish maqsadida Studentlarni fikrlashga chorlovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga alohida ahamiyat berishlari talab etiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, Studentlardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflang" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Chunki, savol tarkibidagi "ta'riflang" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "o'zizda bor bilimlaringizni birma-bir aytib bering" deyish bilan teng.

Studentlarga savol berishda ularni tafakkur qilishga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish kreativ fikrlash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan Studentlarda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'liga ko'ra o'qituvchilar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, "bog'liqlikni toping", "yarating", "bashorat qiling", "mantiqan davom ettiring", "tasavvur qiling" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda o'qituvchi Studentlardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflang"ni talab qilish o'rniga, "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikning barcha turlarini keltirish"ni so'rashi lozim bo'lsa, natijada Studentlar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qituvchilar birinchi yo'lni qo'llash – Studentlarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda yosh mutaxassislarning "Kreativlik xaritasi"dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi yo'l – amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. O'qituvchilar ko'rsatmali metod va usullardan foydalangan holda Studentlarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradilar va takomillashtiradilar.

Uchinchi yo'l - kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo'lda Studentlarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, Studentlar "Yurak va qon aylanishi tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni topish" topshirig'ini bajarar ekanlar, odamning qon aylanishi tizimi bilan bog'liq turli muammolarni tahlil qiladilar. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

To'rtinchi yo'l - kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. "Odamning qon aylanish tizimi" mavzusini o'qitishda o'qituvchi Studentlarga Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimot tayyorlash topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida Studentlarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

Studentlar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar Studentlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo'rqsalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Studentlarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin [5].

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi fe'llarni (birinchi yo'lni) qo'llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (uchinchi yo'l) ustida ish olib borayotgan Studentlarni kreativ fikrlash strategiyalari (ikkinchi yo'l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (to'rtinchi yo'l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Kreativ fikrlash ko'nikmasini mashq qildirish natijasida Studentlar faqatgina o'rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish, yangi

g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar.

Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Inson miyasi doimo to'g'ri ishlashga odatlangan, ya'ni miya uchun faqat birgina to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas.

Kreativlik – Studentlarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun Studentlar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Studentlarning kreativlik qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, ular kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va Studentlar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish va ularning fikr mensimaslik va tanqidga uchrash, kamsitilishdan qo'rqish kabi hislatlar Studentlarda kreativlikni shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu Studentlarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash Studentlarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq Studentlarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari Studentlarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, Studentlarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategik elementlarini o'z ichiga oladi. [4,5].

Studentlarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Vaholanki, o'qituvchi auditoriyada Studentlar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Studentlar kreativlikni auditoriyada o'z g'oya va fikrlarini turli yo'llar bilan ifoda etishlari lozim. Studentlar ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun-qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari kerak. O'qituvchi Studentlardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab- quvvatlaydi. O'qituvchining Studentlar berayotgan kreativ g'oyalarga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o'qituvchi-Student munosabatining muhim qismi bo'lib, Studentlar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Ayrim omillar Studentlarda kreativlik shakllanishi va rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Xato qilish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash- dan qo'rqish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim.

Studentlarda kreativlikni shakllantirish

Studentlarda kreativlikni shakllantirish	
Studentlarni...	- qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan - ta'minlash
Studentlarga...	-kreativlik muvozanatsizlik hissini yuzaga keltirishini anglatish; -bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan shakllantirishga yordam berish; -“qutqarib” qolish emas, balki yo'l-yo'riq - ko'rsatish
Studentlarni ...	- suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash;

	- yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish
Studentlar ...	- o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantirish; - jamoada ishlash; - psixologik jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish

Studentlarda kreativlikni rivojlantirishda to'sqinlik qiluvchi omillar:

- tavakkalchilikdan qochish;
- qo'pol fikrlash va xatti-harakarga yo'l qo'yish;
- tasavvur va fantaziyaning yuqori baholanmasligi;
- tobelik;
- turli sharoitlarda ham faqat yutuqni o'ylash.

O'qituvchi talabalarga yangi ma'lumot va manbalarni havola etganda yoki innovatsion strategiyalarni qo'llaganda, talabalarda fikrlash qobiliyati paydo bo'ladi va e'tibor bera boshlaydilar. Masalan, biror-bir badiiy asar qahramoni yoki biron tarixiy siymoga taqlid qilib kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o'rnini almashtirish, o'yinlar o'ynash (bu o'rta maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o'zgartirish. Oliy ta'lim muassasalarida ham o'qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo'lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart- sharoitni yaratib bera olishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot doirasida kreativlik va uni rivojlantirish muammosiga doir adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi asosiy ilmiy g'oyalarni aniqlash imkonini berdi:

1) Sanoatning, xususan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi inson resurslarining kreativ qobiliyatlardan foydalanishiga bog'liq. Shu bilan birga, kreativ odamlarning shakllanishi ta'lim tizimining vazifalaridan biridir.

2) Kreativlik har qanday faoliyatda shaxsning yangi, original g'oyalarni yaratish qobiliyatini anglatadi. Shu bilan birga, kreativlikni rivojlantirish jarayoni turli faoliyat sohalariga xosdir.

3) Oliy ta'lim tizimida yangi konsepsiya va nazariyalarni qo'llash, turli ilg'or tajribalar foydalanishda qarama - qarshiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Aniqlangan qarama - qarshiliklar tadqiqot ishining muammosi sifatida oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish maqsadi va pedagogik asoslarini shakllantirishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to'plami – T.; 2022 – b.23.

2. Zakirova F.M., Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi. T.: Muhammad Al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2018, 9-bet .

3. Радугина А. А. Психология и педагогика. / Под ред.– Москва: Сентр, 1999. – 256 стр.

4. Satib-Aldiyev A.A. Muloqotni tashkil etishning psixologik-pedagogik shartlari. // O'quvmetodik qo'llanma: Toshkent OUQBY, 2012. – 39 b.

5. Satib-Aldiyev A.A. Pedagogik atamalar izohli lug'ati. // O'quv qo'llanma. – T.: TOUQBY, 2011. – 73 b.